



Tadqiqot **uz**

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 MAY
№28**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
28-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
28-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-25**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 28-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Abdullayeva Xavasxon Xoshimovna

GEOGRAFIYA TA'LIMINING RIVOJI 7

2. Sadulloyeva Dilora Kenjayevna

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA INTERFAOL O'YINLAR 9

3. Shaxriyeva Muazzam Kapitanovna

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING
INNOVATSION VA SAMARALI USULLARI. 11



ГЕОГРАФИЯ

GEOGRAFIYA TA'LIMINING RIVOJI

Abdullayeva Xavasxon Xoshimovna

Marg'ilon shahar 19-maktab
geografiya fani o'qituvchisi
e-mail:abdullayeva@mail.ru

Annotatsiya: maqlada geografiya fanini o'qitish jarayoni, o'quvchilarni fanga qiziqtirish va geografiya fanini rivojlantirish, geografik materiallar yuzasidan mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif sohasi, geografiya fani, geografik ta'lif, maktab.

O'zbekiston maktablarida geografiya ta'lifini (darsliklar va dasturlari mazmunini, o'qitish metodlari, o'quv moddiy bazasi, kadrlar tayyorlash va boshqa xususiyatlarga ko'ra) 4 ta bosqichga ajratish mumkin. 1-bosqich-1918-1934- yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr o'zbek maktablarida geografiya o'qitishni yo'lga qo'yish bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda yangi tipdagi maktablar bilan eski tipdagi maktablar solishtirilganda bir qancha tafovutlar yuzaga keldi. Yangi tipdagi maktab geografiyasiga asos solindi. Dasturlar asosida 1922-1923-yillarda o'qitishning «kompleks dasturlari» ishlab chiqildi. Bu turli variantlarda bo'lib necha marta o'zgardi va o'n yil mobaynida qo'llanildi. Geograf materiallar kompleks mavzular orasiga singib ketdi. 2-bosqich-1934-1955-yillarni o'z ichiga oladi. O'zbek maktablarida geografiya o'qitishning muayyan bir tartibga tushish bosqichi. Bu davrda yagona dastur asosida muayyan darsliklar yaratildi. O'quvchi va o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanmalari ko'proq nashr etila boshlandi. O'zbek tilida metodik qo'llanmalar vujudga kela boshladi. Maktab geografiyasiga hissa qo'sha oladigan metodistlar, geografiya o'qituvchilari yetishib chiqqa boshladi. Ko'plab metodik kitoblar o'zbek tiliga o'girildi.

3-bosqich-1956-1966-yillar. Bu davrni maktab geografiyasini turmush bilan bog'lash bosqichi desa bo'ladi. Bu davrda maktab geografiyasi bo'yicha milliy tadqiqot ishlari olib borildi. O'qitishning samarali xillari tobora kengroq joriy qlina boshlandi. Mahalliy aholidan milliy kadrlar, yirik geograf va metodistlar yetishib chiqdi. O'quvchi va o'qituvchilar uchun ilmiy ommabop va metodik adabiyotlar tarjima qilindi. Geografik atama va nomlar ma'lum bir tizimga tusha bordi.

4-bosqich-1967-1990-yillar. Bu darvda ta'lif sohasida turli o'zgarishlar paydo bo'ldi. O'quv ko'rgazmali qo'llanmalar chop qilindi. Ta'limi isloq qilish borasida bir qator tadbir va o'zgarishlar amalga oshirildi. Muayyan darsliklar tizimi va yangi o'quv kartalari paydo bo'ldi. O'lkashunoslikka e'tibor birmuncha pasaydi. Ammo o'zbekiston geografiyasini o'rganish bo'yicha soatlar hajmi 20% dan oshmaydi. Oktabr to'ntarishidan keyin sovet maktabini isloq kilishdan boshlandi. Dastlab maxsus qarorlar asosida 9 yillik yagona mehnat maktablari tashkil etildi. Bu maktab ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqich 1-5 sinflar, 2-bosqich 6-9-sinflardan iborat. Bunday maktabda geografiya ta'limi maqsad va mazmun jihatdan o'zgardi.

5-sinfda mamlakatshunoslikka oid bo'lgan ma'lumotlar va «qit'alar geografiyasi» o'rganilar edi. 6- va 8- sinflarda Rossiya geografiyasi, 8-sinfda iqtisodiy geografiya, 9-sinfda astronomiya va astrologiya o'rganilar edi. Mazkur dastur o'quvchilarning geografiyaga oid bilimlarini oshirishda katta rol o'ynaydi. Unda geografiyaga ajratilgan soatlar miqdori ancha ko'p edi. 1924-yildan 1930- yillarda maktab geografiya ta'limi uchun og'ir yillar bo'ldi. 1924-yildan boshlab maktab geografiyasi yangicha dasturlar asosida ishlashga o'tdi. Ammo bu darsliklar bo'yicha, geografiya bo'yicha aloxisa predmetlar yo'q edi.

1-4 sinflarda alohida geografiya kurslari o'rni kompleks mavzular egalladi. 4-sinfda Rossiya geografiyasi va boshqa fanlar geografiyasi o'rgatilar edi. Masalan. 1-sinfda yil fasllari, sinfda mahalliy tabiat va xo'jalik bilimlari edi. 4-sinf Rossiya geografiyasi va boshqa fanlar geografiyasi o'rgatilar edi. Ikkinchi bosqich sinflarida geografiya, biologiya, tarix, jamiyatshunoslik fanlari tarkibiga singib ketgan edi.



Geografiya talimida kadrlar yetishtirish masalasi sekin-asta yo‘lga qo‘yildi. 1927 filda Samarkand oliv pedagogika instituti ochildi 1930 yillar oxirlariga kelib oliv ma’lumotli geografiya o‘ituvchilari yetishib chiqsa boshladi. Bular N.Ibodov, G.Nazarov, I.Mirzaboyev, A.Axrarov va boshqalar edi. 1930 yillarning o‘rtalarida Toshkent, Buxoro, Samarqand keyinchalik Nukus, Urganch, Qo‘qon, Andijon shaharlarida pedagogika institutlari ochildi. Maktab geografiyasining taqdirini hal etishda maktab geografiyasi va ilmiy geografiyasining takdiriga katta VKP ning 1931 yil 5 sentabr va 1932 yil 25 avgust qarori ta’sir etdi. Geografiyanı boshqa metodlar tarkibida o‘rganishga qat’iy xotima berdi. Geografiyanı boshqa predmetlar orasida keng huquqli bo‘lishiga imkon yaratdi. Geografiyaning alohida fan ekanligini isbotlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Baxromov , U.Nurov. Geografiya darslarida karta va globus bilan ishlash metodikasi. Buxoro 2005 yil.
2. Q.Baxromov. Xalq maqollari - geografik bilim manbai.Buxoro 2006.
3. Q.Baxromov, A. Jo‘rayev. Ta’limning interfaol usullari. Buxoro 2007 yil
4. R.Kurbanniyozov. Geografiya o‘qitish metodikasi. Toshkent 2001.



GEOGRAFIYA TA'LIMIDA INTERFAOL O'YINLAR

Sadulloyeva Dilora Kenjayevna
Buxoro viloyati Vobkent tumani
2-son umumta'lif maktabi
geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya darslarini yanada samarali va qiziqarli o'tish uchun qo'llaniladigan interfaol o'yinlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, o'yin, geografiya, shahar, daryo, dengiz, ko'l, karta.

Bizga ma'lumki, geografiya dunyodagi eng qadimgi va qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. Geografiyaga qiziqmagan, o'zining kundalik hayotiy faoliyatida geografiyaga duch kelmag'an insonni uchratish qiyin. Bugungi kun geografiyasi yangiliklarni o'quvchilarga yetkazish uchun o'qituvchilardan o'z ustida muntazam ishlashni talab qiladi.

Geografiya darslarini hayotga bog'lab, qiziqarli qilib tashkil etilsagina dars mavzulari har bir saboq oluvchilar ongiga churroq singadi. Bugungi kun talabi darslarni yangi interfaol usullar yordamida tashkil etishdir. Geografik o'yinlar niyoyatda xilma-xil bo'lib, ushbu geografik o'yinlar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishida, o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan havasini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi. Biz quyida geografiya ta'lida qo'llash mumkin bo'lgan interfaol o'yin turlariga to'xtalamiz.

«Kim ko'p biladi» o'yini. Bu o'yinni geografiyaning xohlagan mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin. *O'yin texnologiyasi:* Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar, sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Boshqaruvchi qo'llarni sanab, har biriga 1 balldan qo'yadi. Har bir savolga bir o'quvchidan javob so'raladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa o'sha guruhdan bir ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko'p ball to'plasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

«Uchinchisi ortiqcha» o'yini. Mazkur interfaol o'yinni fanlardan xohlagan mavzuni o'rganish jarayonida qo'llash mumkin, bunda bir-biriga mos keladigan 2 ta to'g'ri va bitta noto'g'ri savol-topshiriq jadvali asosida o'quvchi e'tiboriga havola etiladi. Buni biz geografik topshiriq misolida keltiramiz: **Daryolar Dengizlar Ko'llar.** 1. Nil, Kasbiy, Baykal; 2. Amazonka, Oxota, Viktoriya; 3. Kongo Sariq Boltiq bo'y. Shular ichidan qaysi biri ortiqchaligini kim tez topsa o'sha o'quvchi g'alaba qiladi.

«Kartadan topish» o'yini. Har bir sinfda olib borish mumkin darsning mazmuniga qarab o'yin geografik atlasning sahifalaridagi turli ob'ektlardan bo'ladi. O'yinni uslubi: O'qituvchi geografik ob'ektni aytadi. O'quvchilar topadi va izohlab beradi. O'quvchilar bu o'yinni bir necha bor o'ynaganlaridan so'ng tez topadigan bo'ladi. O'quvchilar murakkablashtirib borib, shu topiladigan nomning geografik koordinatalarini aniqlash topshiriladi. Buning uchun shahar va qo'riqxonalarni tanlagan ma'qul. O'quvchilar topilgan joyning koordinatalarini daftarga yozib oladilar.

«Geoekologik lug'at» o'yini. Bu o'yinni ikki o'quvchi bajaradi hamda bu o'yinga bir kishi hakamlik qiladi va yozib boradi. Bunda o'quvchilar navbatma-navbat bilan boshlanadigan geografik atama va nomlarni aytishadi. O'yinning uslubi: masalan, «A» harfidan o'yin boshlansa, aspekt, antropogen kabilar. O'yin borgan sari qiziqarli bo'lib boradi. Nom topilmagan holda yoki geografiyaga tegishli bo'lмаган atama yoki nomlar aytgan o'quvchi yengilgan hisoblanadi.

«Qizil kitobni bilasizmi?» o'yini. O'yinning mazmuni: o'yin qatnashchilariga savollar Qizil kitob bo'yicha beriladi. Qizil kitobga kiritilgan hayvonlarning va o'simliklarning nomi, sinfi, turkumi, oilasi to'g'risida savollar beriladi. Shu tariqa o'yin davom etadi. Kim ko'p savolga javob bersa o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.. **«Kim ko'p yozadi?» o'yini.** O'yin tartibi: o'quvchilar oldiga faqat qog'oz va qalam bo'lishi kerak. O'yinni «O'zbekiston daryolari», «Ko'llar», «Suv omborlari» mavzulari bo'yicha o'tkazish, ayniqsa, yaxshi natija beradi. Bu o'yin uchun ma'lum bir vaqt belgilanadi. Masalan, «O'zbekiston daryolari» e'lon qilindi, deylik, o'quvchilar esa belgilangan vaqt ichida o'zлари bilan daryo nomlarini yozib chiqishlari kerak. Yozilgan har bir daryo uchun 1 ochko beriladi. O'yinda eng ko'p ochko to'plagan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

«O'zbekiston shaharlarini raqamlar yordamida o'rganish» o'yini. O'quvchilar kuchi bilan O'zbekistonning bir necha kontur kartalari tayyorlanadi va bu kartalarda shaharlar o'rнига raqamlar qo'yib chiqiladi. Butun sinf o'quvchilari bir vaqtida o'yinda ishtirok etishlari mumkin.



O'yinni boshqaruvchi qo'lida kontur kartadagi raqamlar o'rnidagi shaharlarning ro'yxati bo'lishi kerak. O'quvchilar qo'lida esa diametri 1 sm kattalikdagi doirachalar bo'lishi lozim. Ular o'yin boshqaruvchi e'lon qilgan shaharni kontur kartadagi raqam ustiga qo'yib borishlari kerak. Masalan, agar o'qituvchi 5 deb e'lon qilgan bo'lsa, o'quvchi o'z doirasini Termiz shahrining ustiga qo'yishi kerak va hokazo. O'yinni boshqaruvchi o'yin natijalarini tekshirib, g'olib o'quvchini aniqlaydi. O'quvchining har bir to'g'ri javobiga 1 balldan berib borish mumkin.

«O'zbekiston sanoat korxonalarini o'rganish» o'yini. 8 -sinflarda «O'zbekiston sanoati» mavzusini o'rganish jarayonida bu o'yindan foydalanish mumkin. O'yinda butun sinf o'quvchilari ishtiroketishi lozim. Sinfdagio'quvchilar soniga qarab bir xil kattalikdagi qog'ozga Respublikamizda ishlab chiqariladigan eng muhim sanoat mahsulotlarining va ba'zi korxonalarining nomlari yoziladi, lekin ular joylashgan shaharlar yozilmaydi.

Mahsulot va korxonalarining nomlari qayerda joylashgan

1. Shakar zavodi.
2. Eng yirik shoyi kombinati.
3. Ekskovator zavodi.
4. Baliq-konserva kombinati.
5. Eng yirik meva-konserva kombinati.
6. Avtomobil zavodi.

O'quvchilar belgilangan vaqt ichida so'roq alomatlari o'rniga tegishli zavod va korxonalar joylashgan shahar nomini yozishlari kerak. Bu vazifani to'liq va xatosiz bajargan o'quvchi o'yin g'olib hisoblanadi. O'yinda xaritadan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soliyev A., Nazarov M., Qurbanov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.
2. J. Yo'ldoshev Yangi pedagogik texnologiya.
3. Internet malumotlari.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING INNOVATSION VA SAMARALI USULLARI.

Shaxriyeva Muazzam Kapitanovna
Kogon tuman 1-umumta'lismaktabi
Geografiya fani o'qituvchisi
TEL: 998914019144

Annotatsiya: maqlada suv, undan foydalanish, suv haqida qiziqarli faktlar berilgan.

Kalit so'zlar: suv, suv tanqisligi, toza suv

Suv insonning kislороддан keyingi ikkinchi ehtiyoji hisoblanadi. Suv, uning fizik va kimyoviy xususiyatlari, qanday maqsadlarda foydalanishi hech kimga sir emasdir. Unda hayot paydo bo'ldimi demak butun insonyatni, jamiki butun borliqni vayron qilish qudratiga ham ega. Suv shunday kuchga egaki qattiq toshli qoyalarni yemirib, mayda-mayda uvoqlarga aylantirib yuboradi.

Suvning inson hayotidagi ahamiyatini hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Inson ovqatlanmasdan bir oylab yashay olar, lekin, suvsiz uch kunga yetmay halok bo'ladi. Shunday vaziyat guvohi bo'lgan biz shifoxonaning onkologiya bo'limida tomoq sohasida rak o'simtasi bor bo'lgan katta yoshli bir ayol ovqatlanishda ancha qiyalar bir, ikki qoshiq ovqatni zo'rg'a istemol qildi, lekin suv ichishda uncha qiyalmash edi. Suv uning umrini bir necha oyga uzaytirdi, tub ma'noda hayotining asosiga aylandi.

Suv haqida buyuk mutafakkir, filosof Geraklit shunday fikrlarni yozib qoldirgan, hamma narsa oqimda, hamma narsa o'zgaradi”, „bir daryoga ikki marta sho'ng'ib bo'lmaydi” ya'ni suvning tarkibi o'zgaruvchan, u doim yangilanib turadi. Suvning har bir tomchisidan oqilona foydalanish kerak. Xalq og'zaki manbalarida birinchi martaba 1771-yili fors tilida yozilgan Mir Ahmad Xusayn al-Oqiliyning „ulxazon al-adabiya” ya'ni „davolar xazinasi” kitobida suvning foydali va zararli tomonlari haqida tariflab, suvni qor, yomg'ir, daryo va anhor hamda buloq suvlari deb guruhab o'tgan, oqar va tinch turgan suvlarning xislatlarin yoritib birgan. Suv faqtgina ichimlik manbai bo'libgina qolmay balki shifobaxsh ne'mat hamdir, deya ta'kidlagan.

Hayot manbayimiz bo'lmish ichimlik suvining zahirasi afsuski oz miqdorda, chunki suvga bolgan ehtiyoj ancha yuqori.

Quyida suv haqida aniq va qiziqarli fikrlar keltirilgan.

- Shunday davlatlar borki, undagi aholi bir qultum suvni ham tejab, to'yib suv ichish orzusiga aylangan.
- Dunyoda eng ko'p foydali moddalarni o'ziga jamlagan suv-buloq suvidir.
- Dunyoda eng qimmat suv Los-Anjelesda sotiladi. (1litri-90 dollar)
- Inson hayoti davomida taxminan 35 tonna suv ichadi.
- Insoniyat dunyodagi butun suv zahiralarining faqatgina 0.4%ni foydalanadi.
- Bugungi kunda 40 dan ortiq mamlakatdagi 2 millarddan ortiq aholi boshida suv yetishmasligi muammosi bor.
- Har kuni suv havzalariga 2 million tonnadan ortiq chiqindi tashlanadi.
- Madrid shahrida yashovchi kishi Toshkent shahrida yashovchi kishidan 3 barobar kam suv ichadi.

Bu albatta qandaydir darajada shahar suv yetkazib berish tarmog'inig nosozligi va eskirganligi, texnik suv tizmining yo'qligi bilan ko'proq bo'liq bo'lsa-da, ozroq darajada aholining suvga bo'lgan munosabatidagi farqqa ham borib taqaladi.

Resurslardan oqilona foydalanmaslik natijasida ko'plab yerlar botqoqlashishi, sho'rланishi va sug'orish keltirib chiqaradigan erroziyaga chalinmoqda. Suvi oqib ketmaydigan havzalarga quyiladigan ortiqcha (drenaj) suvlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy va boshqa viloyatlarda katta-katta ko'llarga aylanmoqda. Ko'plab suv havzalaridagi suvlar va baliqlar hozirgi kunda inson iste'mol qilishi uchun yaroqsiz holatga kelgan, agar shoshilinch choralar ko'rilmaydigan bo'lsa, vaziyat bundanda yomonlashib ketishi aniq.



Suv tanqisligi tufayli sahrolarda yashovchi aholi poklanish maqsadida suv o‘rniga qumdan foydalanishar ekan. Mana shunday vaziyatlarda hayot manbayimiz bo‘lmish suvdan oqilona fodalanmasak, uning tozaligiga e‘tibor qaratmasak, biz ham bir tomchi suvgaga zor bo‘lishdek suvsizlik balosiga duchor bo‘lishimiz, o‘zimiz ifloslagan suvda o‘zimiz turli kasalliklar yuqturshimiz, ona tabiatimizning qahriga duchor bo‘lishimiz hech gap emas. Shuning uchun hayot manbayimiz bo‘lmish suvdan tejab-tergab oqilona foydalanaylik azizlar!

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Zamin.uz internet sahifasi

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 31.05.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000